

TIJORAT BANKI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Utkirova Nodira Timurovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22869725>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kredit portfelining bank aktivlari tarkibidagi o‘rni, kredit riskini baholash, muammoli kreditlarni kamaytirish, kreditlarning tarmoq va mijozlar bo‘yicha diversifikatsiyasini ta‘minlash hamda portfel daromadlilik va risk darajasi o‘rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish masalalari yoritilgan. O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfelining 2025–2026-yillardagi holati Markaziy bank ma‘lumotlari asosida tahlil qilinib, kreditlar hajmining o‘sishi bilan bir qatorda portfel sifatini doimiy nazorat qilish zarurligi asoslangan. Kredit skoringi, PD, LGD va EAD ko‘rsatkichlari, stress-test, erta ogohlantirish tizimi, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlardan foydalanish asosida kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etilgan. Shuningdek, kredit riskiga asoslangan narxlash, muammoli kreditlar bilan ishlashning maxsus tizimini yaratish va tarmoq konsentratsiyasini cheklash banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishning asosiy omillari sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit portfeli, kredit riski, muammoli kredit, NPL, diversifikatsiya, kredit skoringi, PD, LGD, EAD, stress-test, kredit monitoringi, bank risklari, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the effective management of commercial bank loan portfolios. It addresses issues such as the role of the loan portfolio within bank assets, credit risk assessment, the reduction of problem loans, ensuring portfolio diversification across sectors and clients, and establishing an optimal balance between portfolio profitability and risk levels. Based on Central Bank data, the article analyzes the state of commercial bank loan portfolios in Uzbekistan during 2025–2026 and substantiates the necessity of continuously monitoring portfolio quality alongside loan volume growth. Proposals are made to improve loan portfolio management through the use of credit scoring, PD, LGD, and EAD metrics, stress testing, early warning systems, artificial intelligence, and big data. Furthermore, credit risk-based pricing, the creation of specialized systems for handling problem loans, and the limitation of sectoral concentration are identified as key factors for enhancing the financial stability of banks.

Keywords: commercial bank, loan portfolio, credit risk, problem loan, NPL, diversification, credit scoring, PD, LGD, EAD, stress testing, credit monitoring, banking risks, financial stability.

Kirish

Zamonaviy bank tizimida kreditlash tijorat banklarining asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, kredit operatsiyalari bank faoliyatidagi eng yirik moliyaviy risk

— kredit riskini shakllantiradi. Bank tomonidan kredit resurslarining noto‘g‘ri joylashtirilishi, kredit oluvchilarning to‘lov qobiliyatini yetarlicha baholamaslik, kreditlarning muayyan tarmoq yoki mijozlar guruhida haddan tashqari konsentratsiyalashuvi muammoli kreditlarning ko‘payishiga, likvidlik va kapital yetarliligi ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli kredit portfelini boshqarish faqat yangi kreditlarni ajratish jarayonini tashkil etishdan iborat emas. Zamonaviy kredit portfeli boshqaruvi kredit berishdan oldingi tahlil, qarz oluvchining kreditga layoqatlilikini baholash, kredit narxini riskka mos ravishda belgilash, kreditdan foydalanishni monitoring qilish, kredit portfelining diversifikatsiyasini nazorat qilish, kutilayotgan zararlarni hisoblash, muammoli kreditlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash hamda ularni restrukturalizatsiya qilish kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Basel qo‘mitasining amaldagi tamoyillariga ko‘ra, bank kredit riskini nafaqat alohida qarzdor yoki kredit operatsiyasi darajasida, balki butun kredit portfeli miqyosida boshqarishi lozim. Bunda kredit strategiyasini belgilash, kredit ajratish standartlari, monitoring, riskni o‘lchash, konsentratsiyani cheklash va ichki nazorat bir butun tizim sifatida ishlashi kerak.

Adabiyotlar sharhi: Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish masalasi iqtisodiy va moliyaviy adabiyotlarda kredit riskini baholash, portfelni diversifikatsiya qilish, qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilikini aniqlash, muammoli kreditlarni boshqarish hamda risk va daromadlilik o‘rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan.

Kredit portfelini samarali boshqarishga oid ilmiy qarashlarning shakllanishida portfel nazariyasi, axborot assimetriyasi nazariyasi, korporativ defoltni prognozlash hamda kredit riskini miqdoriy baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim o‘rin egallaydi.

Harry Markowitzning “Portfolio Selection” (1952) nomli ilmiy asari zamonaviy portfel nazariyasining metodologik asosini yaratgan. Muallif investitsiya portfelini shakllantirishda alohida aktivlarning daromadlilik bilan bir qatorda ularning umumiy portfel riskiga ta‘sirini ham hisobga olish zarurligini asoslab bergan. Markowitz nazariyasiga ko‘ra, mablag‘larni turli aktivlar o‘rtasida oqilona taqsimlash orqali umumiy riskni kamaytirish mumkin. Ushbu yondashuv tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishda ham katta ahamiyatga ega. Xususan, kreditlarning bitta tarmoq, hudud yoki mijozlar guruhida haddan tashqari jamlanishi bankning konsentratsiya riskini oshiradi. Shu bois kredit portfelini iqtisodiyot tarmoqlari, kredit mahsulotlari, hududlar, qarzдорlarning faoliyat sohasi va risk darajasi bo‘yicha diversifikatsiya qilish bank moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Edward Altman o‘zining “Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy” (1968) asarida korxonalarning moliyaviy holatini baholash va bankrotlik ehtimolini oldindan aniqlashning statistik modelini taklif etgan. Muallif ishlab chiqqan Z-score modeli korxonaning likvidligi, rentabelligi, kapital tarkibi va aktivlardan foydalanish samaradorligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanib moliyaviy qiyinchilik yuzaga kelish ehtimolini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv banklar kredit portfelini boshqarishda qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilikini aniqlash, potensial muammoli kreditlarni kredit ajratilishidan oldin aniqlash va qaror qabul qilish sifatini oshirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat

qilgan. Hozirgi davrda Altman modeli tamoyillari kredit skoringi va avtomatlashtirilgan risk-baholash tizimlarida yanada rivojlantirilmoqda.

Robert Mertonning “On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates” (1974) nomli tadqiqotida qarz majburiyatlari bo'yicha defolt riski va kredit qiymatini baholashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Merton modeli qarzдорning aktivlari qiymati, majburiyatlari va kapital tarkibi o'rtasidagi bog'liqlik orqali defolt ehtimolini aniqlash imkoniyatini ko'rsatadi. Ushbu nazariya tijorat banklari uchun kredit riskini faqat qarz oluvchining joriy moliyaviy holati orqali emas, balki kelajakdagi majburiyatlarni bajarish qobiliyati bilan bog'liq holda baholash zarurligini asoslaydi. Shu jihatdan ushbu yondashuv kredit portfelida yuqori riskli qarzдорlarni aniqlash, ularga nisbatan differensial kredit shartlarini qo'llash va kutilayotgan zararlarni prognoz qilishda muhimdir.

Joseph Stiglitz va Andrew Weissning “Credit Rationing in Markets with Imperfect Information” (1981) asarida kredit bozoridagi axborot assimetriyasi muammosi chuqur tahlil qilingan. Mualliflar bank kreditlari bozorida qarz oluvchi o'zining real moliyaviy imkoniyatlari va risk darajasi to'g'risida bankka nisbatan ko'proq axborotga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Natijada bank kredit foiz stavkasini oshirish orqali kredit riskini to'liq kamaytira olmaydi. Aksincha, yuqori foiz stavkalari nisbatan ishonchli qarz oluvchilarni kredit bozorida chiqarib yuborib, yuqori riskli mijozlarning ulushini oshirishi mumkin. Ushbu ilmiy xulosa kredit portfelini boshqarishda foiz stavkasini belgilash bilan cheklanmasdan, mijozning moliyaviy holati, pul oqimlari, kredit tarixi, biznes modeli va ta'minot sifatini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi.

Anthony Saunders va Linda Allenning “Credit Risk Management In and Out of the Financial Crisis: New Approaches to Value at Risk and Other Paradigms” (2010) asarida kredit riskini baholash va boshqarishning zamonaviy usullari batafsil yoritilgan. Mualliflar kredit portfelini boshqarishda alohida kreditlarning risk darajasini baholash bilan bir qatorda, portfel darajasida kutilmagan zararlar, defolt korrelyatsiyasi va makroiqtisodiy omillar ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv tijorat banklarida stress-testlar, kredit portfelining ssenariy tahlili hamda riskka asoslangan kapital taqsimotining ahamiyatini oshiradi.

Frederic Mishkinning “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets” asarining zamonaviy nashrlarida banklar faoliyatida kredit riskini boshqarish moliyaviy vositachilik samaradorligining muhim omili sifatida izohlanadi. Muallif fikricha, banklar qarz oluvchilar to'g'risidagi axborotni yig'ish va qayta ishlash, ularni monitoring qilish hamda kredit shartnomalariga tegishli cheklovlar kiritish orqali axborot assimetriasining salbiy ta'sirini kamaytiradi. Ushbu yondashuv tijorat banklari kredit portfelida kreditdan keyingi monitoringni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda kredit portfelini boshqarishda raqamli texnologiyalar, Big Data, mashinaviy o'qitish va sun'iy intellektdan foydalanish alohida yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Bunday texnologiyalar qarz oluvchining an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda tranzaksiyalar tarixi, hisobvaraqlardagi pul oqimi, to'lov intizomi va boshqa raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Natijada bank kredit riskini yanada aniqroq baholashi, muammoli kreditga aylanish ehtimoli yuqori boʻlgan qarzdorlarni erta aniqlashi va tegishli choralarni koʻrishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini boshqarish samaradorligini baholashda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari hamda sohaga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Kredit portfeli holatini baholashda kreditlar hajmi, muammoli kreditlar ulushi, portfel tarkibi, diversifikatsiya darajasi va kredit riskiga oid koʻrsatkichlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Oʻzbekiston tijorat banklari kredit portfelining soʻnggi yillardagi holati bank tizimida kreditlash koʻlami izchil kengayayotganini koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy maʼlumotlariga koʻra, 2025-yil 1-iyun holatida bank tizimining jami kredit portfeli 567,7 trln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2026-yil 1-iyunga kelib ushbu koʻrsatkich 636,0 trln soʻmga yetgan. Natijada bir yil davomida tijorat banklari kredit portfeli qariyb 68,3 trln soʻmga yoki 12 foizga oshgan. Shu davrda bank tizimining jami aktivlari 829,8 trln soʻmdan 984,4 trln soʻmga, depozitlar hajmi esa 345,6 trln soʻmdan 460,6 trln soʻmga koʻpaygan. Bank kapitali ham 121,5 trln soʻmdan 145,5 trln soʻmga, yaʼni 20 foizga oshgan. Mazkur koʻrsatkichlar bank tizimining resurs bazasi mustahkamlanayotganini va kreditlash imkoniyatlari kengayayotganini koʻrsatadi.



1-rasm. Oʻzbekiston tijorat banklari kredit portfelining soʻnggi yillardagi holati 2025-yil 1-iyun va 2026-yil 1-iyun holatiga, trln soʻm

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlari asosida tuzildi.

Kredit portfelini samarali boshqarishda faqat uning umumiy hajmini oshirish emas, balki moliyalashtirish manbalari bilan mutanosibligini taʼminlash ham muhim hisoblanadi. Bu jihatdan ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Xususan, Markaziy bank maʼlumotlariga koʻra, kreditlarning depozitlarga nisbati 2025-yil 1-iyundagi 164 foizdan 2026-yil 1-iyunda 138 foizgacha kamaygan.

Davlat ulushi mavjud banklarda mazkur koʻrsatkich 219 foizdan 176 foizga tushgan boʻlsa, boshqa banklarda 106 foizdan 97 foizga pasaygan.

Bu depozitlar hajmining kreditlarga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sayotganini va banklarning kredit operatsiyalarini ichki resurslar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari yaxshilanayotganini bildiradi. Kredit-depozit nisbatining pasayishi, o'z navbatida, banklarning likvidlik riskini kamaytirish va kredit portfelini barqaror moliyalashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holatdir.

Kredit portfelining valyuta tarkibida ham muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. 2025-yil 1-iyunda 567,7 trln so'mlik jami kreditlarning 234,4 trln so'mi yoki 41 foizi xorijiy valyutadagi kreditlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2026-yil 1-iyunda xorijiy valyutadagi kreditlar 248,9 trln so'mni tashkil etgan va ularning jami kreditlardagi ulushi 39 foizgacha pasaygan. Mutlaq hajmda valyuta kreditlari ko'paygan bo'lsa-da, jami portfeldagi ulushining 2 foiz bandga qisqarishi valyuta riskining nisbatan kamayishi sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, eksport tushumiga ega bo'lmagan qarz oluvchilarga xorijiy valyutada kredit ajratishda valyuta kursining o'zgarishi qarzorning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli ushbu tendensiya kredit portfelining risk darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha tarkibi tahlil qilinganda ham sezilarli tarkibiy o'zgarishlar aniqlanadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 2025-yil 1-iyundagi 193,7 trln so'mdan 2026-yil 1-iyunda 232,9 trln so'mga oshgan, ya'ni o'sish sur'ati 20 foizni tashkil etgan. Natijada jismoniy shaxslar kreditlarining jami portfeldagi ulushi 34 foizdan 37 foizgacha ko'tarilgan. Bu chakana kreditlash banklarning kredit faoliyatida tobora katta ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Biroq iste'mol va boshqa chakana kreditlarning tez sur'atlarda o'sishi aholi qarz yukini, qarz oluvchilarning daromad barqarorligini va qarzga xizmat ko'rsatish koeffitsiyentlarini muntazam nazorat qilishni talab etadi.

Shu bilan birga, sanoat sohasiga ajratilgan kreditlar hajmi 156,8 trln so'mdan 139,5 trln so'mga kamaygan, ularning jami kredit portfelidagi ulushi esa 28 foizdan 22 foizgacha qisqargan.

Aksincha, qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlar 57,4 trln so'mdan 67,2 trln so'mga yoki 17 foizga, qurilish sohasidagi kreditlar 14,6 trln so'mdan 21,6 trln so'mga yoki 48 foizga, savdo va umumiy xizmatlar sohasidagi kreditlar esa 39,7 trln so'mdan 53,2 trln so'mga yoki 34 foizga oshgan. Ushbu tarkibiy o'zgarishlar banklar kredit portfelining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha qayta taqsimlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qurilish va savdo sohalaridagi kreditlarning yuqori sur'atlarda o'sishi banklardan ushbu yo'nalishlarda konsentratsiya riskini chuqurroq baholashni talab qiladi.

Kredit portfelini boshqarish samaradorligini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri muammoli kreditlar — NPL (Non-Performing Loans) darajasidir. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyunda tijorat banklaridagi muammoli kreditlar 23,52 trln so'mni tashkil etib, jami kredit portfelining 4,1 foiziga teng bo'lgan. 2026-yil 1-iyunga kelib muammoli kreditlarning hajmi 23,61 trln so'm, ularning jami kreditlardagi ulushi esa 3,7 foizni tashkil etgan. Demak, bir yil davomida NPL ulushi 0,4 foiz bandga pasaygan.

Biroq mazkur natijani baholashda muhim jihat mavjud. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 4,1 foizdan 3,7 foizga kamaygan bo'lsa ham, ularning mutlaq summasi 23,52

trln soʻmdan 23,61 trln soʻmga biroz oshgan. Bu NPL koeffitsiyentining yaxshilanishiga qisman umumiy kredit portfelining tez surʻatlarda oʻsishi sabab boʻlganini koʻrsatadi. Shu sababli tijorat banklari kredit portfeli sifatini baholashda faqat NPLning foizdagi ulushidan foydalanish yetarli emas. Muammoli kreditlarning mutlaq miqdori, 30–90 kunlik kechikkan kreditlar, restrukturizatsiya qilingan qarzarlar, kreditlar boʻyicha shakllantirilgan zaxiralar hamda qarzdorlarning moliyaviy holatidagi oʻzgarishlarni ham birgalikda tahlil qilish lozim.

2026-yil 1-iyun holatidagi banklar kesimidagi koʻrsatkichlar kredit riskining turli banklarda sezilarli farqlanishini koʻrsatadi. Masalan, Mikroreditbankda NPL ulushi 7,9 foiz, Asaka bankda 4,9 foiz, Xalq bankida 4,7 foiz va Biznesni rivojlantirish bankida 4,3 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, Oʻzmilliybankda mazkur koʻrsatkich 3,3 foiz, Agrobank va Oʻzsanoatqurilishbankda 3,5 foiz darajasida qayd etilgan. Bunday tafovutlar kredit portfelining tarkibi, mijozlar segmenti, tarmoq konsentratsiyasi va kredit riskini boshqarish mexanizmlarining banklar boʻyicha farqlanishini koʻrsatadi.

Kredit portfelining institutsional tarkibida davlat ulushi mavjud banklarning mavqei yuqoriligicha qolmoqda. 2025-yil 1-iyunda davlat ulushi mavjud banklarning kreditlari 389,2 trln soʻm boʻlib, jami kredit portfelining 69 foizini tashkil etgan. 2026-yil 1-iyunga kelib ushbu banklar kreditlari 420,4 trln soʻmga yetgan, biroq ularning jami kreditlardagi ulushi 66 foizgacha pasaygan. Boshqa banklarning kreditlari esa 178,5 trln soʻmdan 215,5 trln soʻmga oshgan. Mazkur tendensiya bank kreditlari bozorida nodavlat va xususiy banklarning roli asta-sekin kengayib borayotganini koʻrsatadi.

Muhokama

Oʻzbekiston tijorat banklari kredit portfeli hajmi oshib borayotgan bir sharoitda uning sifatini taʼminlash masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotganini koʻrsatadi. Kredit portfelining kengayishi banklarning daromad olish imkoniyatlarini oshirsa-da, kreditlash surʻatlarining haddan tashqari tezlashishi kelgusida muammoli kreditlar hajmining ortishiga sabab boʻlishi mumkin. Shu bois kredit portfelini boshqarishda miqdoriy oʻsishdan koʻra sifat, risk va daromadlilik oʻrtasidagi muvozanat ustuvor boʻlishi lozim.

Tahlilda NPL ulushining pasaygani ijobiy holat sifatida baholandi. Biroq muammoli kreditlarning mutlaq hajmi deyarli kamaymaganligi kredit portfeli sifatini faqat bitta koʻrsatkich asosida baholash yetarli emasligini koʻrsatadi. Banklar kreditlarning kechikish darajasi, restrukturizatsiya qilingan qarzarlar, qarzdorlarning pul oqimlari, garov taʼminoti sifati va tarmoq risklarini birgalikda monitoring qilishi zarur. Ayniqsa, kredit portfeli tez oʻsayotgan davrda yangi ajratilgan kreditlarning kelgusidagi sifatiga alohida eʼtibor qaratish muhimdir.

Kreditlarning jismoniy shaxslar, savdo va qurilish sohalarida tez oʻsishi ham muayyan risklarni yuzaga keltiradi. Bunday segmentlarda iqtisodiy konʻyunktura, aholi daromadlari, foiz stavkalari yoki koʻchmas mulk bozoridagi oʻzgarishlar qarz oluvchilarning toʻlov qobiliyatiga tez taʼsir qilishi mumkin. Shu sababli banklar ushbu yoʻnalishlarda kredit konsentratsiyasi limitlarini belgilashi, muntazam stress-testlar oʻtkazishi va ehtimoliy salbiy ssenariylarni oldindan baholashi maqsadga muvofiq.

Kredit portfelini boshqarishni takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Kredit skoringi, sun'iy intellekt, Big Data va erta ogohlantirish tizimlaridan foydalanish qarzдорlarning moliyaviy holatidagi salbiy o'zgarishlarni an'anaviy monitoring usullariga nisbatan tezroq aniqlash imkonini beradi. Bu esa muammoli kreditlar shakllanishidan oldin profilaktik choralar ko'rish, kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish yoki qo'shimcha ta'minot talab qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, kredit portfelini boshqarishda riskka asoslangan narxlash tizimini kuchaytirish zarur. Kredit foiz stavkasi faqat bankning resurs qiymati va operatsion xarajatlariga emas, balki qarzдорning defolt ehtimoli, kutilayotgan zarar miqdori va kreditning umumiy risk darajasiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Bunday yondashuv yuqori riskli kreditlar bo'yicha yetarli risk mukofotini shakllantirish va bank kapitalidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligi, daromadliligi va kredit risklarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Kredit portfeli hajmining o'sishi bank faoliyati kengayishining ijobiy belgisi bo'lsa-da, ushbu jarayon kreditlar sifati, muammoli kreditlar darajasi, tarmoq konsentratsiyasi va qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati bilan uyg'un ravishda boshqarilishi lozim.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli hajmi oshib, NPL ulushida pasayish kuzatilgan. Biroq muammoli kreditlarning mutlaq hajmi yuqori darajada saqlanib qolayotgani kredit portfeli sifatini doimiy monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, jismoniy shaxslar, savdo va qurilish sohalarida kreditlash hajmining tez o'sishi ushbu segmentlarda risklarni chuqur baholashni talab etadi.

Kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish uchun banklarda kreditlarni tarmoq, hudud va mijozlar kesimida diversifikatsiya qilish, kredit skoring tizimlarini rivojlantirish, PD, LGD va EAD ko'rsatkichlaridan foydalanish, stress-testlarni muntazam o'tkazish hamda erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, riskka asoslangan foiz stavkalarini belgilash va muammoli kreditlar bilan ishlashning proaktiv mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Altman, E.I. (1968) 'Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy', *The Journal of Finance*, 23(4), pp. 589–609.
2. Basel Committee on Banking Supervision (2000) *Principles for the Management of Credit Risk*. Basel: Bank for International Settlements.
3. Basel Committee on Banking Supervision (2017) *Prudential Treatment of Problem Assets – Definitions of Non-Performing Exposures and Forbearance*. Basel: Bank for International Settlements.
4. Basel Committee on Banking Supervision (2025) *Principles for the Management of Credit Risk*. Basel: Bank for International Settlements.
5. IFRS Foundation (2014) *IFRS 9 Financial Instruments*. London: IFRS Foundation.

6. International Monetary Fund (2025) *Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation*. Washington, DC: International Monetary Fund.
7. Markowitz, H. (1952) 'Portfolio Selection', *The Journal of Finance*, 7(1), pp. 77–91.
8. Merton, R.C. (1974) 'On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates', *The Journal of Finance*, 29(2), pp. 449–470.
9. Mishkin, F.S. (2022) *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 13th edn. Harlow: Pearson.
10. Saunders, A. and Allen, L. (2010) *Credit Risk Management In and Out of the Financial Crisis: New Approaches to Value at Risk and Other Paradigms*. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
11. Stiglitz, J.E. and Weiss, A. (1981) 'Credit Rationing in Markets with Imperfect Information', *American Economic Review*, 71(3), pp. 393–410.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026) *Bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari: 2026-yil 1-iyun holatiga*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026) *Tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari: 2026-yil 1-iyun holatiga*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026) *Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida: 2026-yil 1-iyun holatiga*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026) *Bank tizimining nisbiy ko'rsatkichlari: 2025-yil 1-iyun va 2026-yil 1-iyun holatiga*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.